



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Umida Karimova¹

¹ Qashqadaryo viloyati PYMO'MM Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim kafedrası o'qituvchisi

UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH JARAYONIDA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI TARBIYACHILARINING METODIK KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari yoritilgan. Shuningdek, tarbiyachilarning metodik tayyorgarlik tushunchalari va metodik bilimlari turli aspektlar bilan bog'liq holda belgilangan.

Kalit so'zlar: uzluksiz kasbiy rivojlantirish, metodik tayyorgarlik, metodik bilim, kasbiy-metodik, aspekt.

Kirish (Introduction). Jahonda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish orqali uzluksiz ta'lim tizimi sifati va raqobatbardoshligini ta'minlash, professional sharoitda, real ta'lim berish muhitida o'z malakasini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish, shaxsning kasbiy muhim kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan uzluksiz ta'lim modellari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Koreya Respublikasida o'tkazilgan Butunjahon ta'lim forumida qabul qilingan 2030 yilga qadar rivojlanish deklaratsiyasida "butun hayot davomida sifatlí ta'lim olish imkoniyatlarini yaratish" [1] qayd etilgan bo'lib, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining kasbiy faoliyatida metodik tayyorgarlik darajasini oshirish, uzluksiz kasbiy rivojlantirishning turli modellari va texnologiyalarini ishlab chiqishni ta'minlashga qaratilgan tizimli ishlar olib borilmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda maktabgacha ta‘lim xodimlarining malakasini oshirish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish, maktabgacha ta‘lim tashkilotlari tarbiyachilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish bo‘yicha umumiy strategiyani o‘zgartirishning huquqiy-meyoriy asoslari yaratilmoqda. Natijada, maktabgacha ta‘lim tashkilotlari tarbiyachilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish, kattalar ta‘limining o‘zini o‘zi kasbiy rivojlantirish modeli va uni amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqishga keng imkoniyatlar yaratildi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari tarbiyachilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish, ularni kasbiy rivojlantirishga doir mahalliy hamda xorijiy tajribalarni o‘rganish va tahlil qilish shu soha yuzasidan fundamental tushunchaga ega bo‘lish imkonini beradi. Shunga muvofiq mazkur muammo yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlarining ayrim jihatlarini o‘rgandik.

Yurtimiz, MDH va xorijlik olimlar tomonidan tarbiyachilarni kasbiy rivojlantirish muammosi batafsil muhokama qilingan. Pedagog olimlardan A.R.Aripdjanova [5], X.I.Ibragimov [9], S.T.Turg‘unovlarning [14] ilmiy izlanishlarida pedagoglarda kasbiy-innovatsion tayyorgarlikni rivojlantirishning o‘ziga xos jihatlari, pedagogik qobiliyatlarni takomillashtirishga ta‘sir etuvchi ijtimoiy faollik va ijtimoiy omillar yoritib berilgan.

MDH davlatlarida tarbiyachilarning metodik tayyorgarligining nazariy va amaliy asoslari G.Abramyan [4], V.Bespalko [7], V.Davidov [8], V.Shadrikov [15] kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan.

Xorijiy davlatlarda pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish strategiyalari, innovatsion yondashuvlari, pedagogning o‘z-o‘zini kasbiy rivojlantirishi masalalarini Djon Raven (Raven John) [13], Robert Marsano (Robert J.Marzano) [2], Maykl D.Tot (Michael D.Toth) [2], Mareyke Kunter (Mareike Kunter) [3] kabi xorijlik olimlar ilmiy izlanishlari uchun tadqiqot yo‘nalishi etib belgilagan.

Z.Artikbayeva “pedagogning metodik tayyorgarlik tizimining rivojlanganlik darajasi tizim xususiyatlarini hisobga olish hamda ta‘lim jarayonining ilmiyligi samaradorligiga bog‘liq” deb hisoblaydi [6].

M.T.Mirsoliyeva “kasbiy tayyorgarlik – maxsus nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalar, shuningdek, ma‘naviy-axloqiy sifatlarni o‘zlashtirish asosida shaxsning kasbiy faoliyatni olib borishga nisbatan fizilologik, psixologik va jismoniy tayyorgarlik darajasi” ekanligini ta‘kidlaydi [12, 25-b]. Shuningdek, muallif “kasbiy tayyorgarlikni shakllantirish – DTS talablari asosida shaxsda maxsus nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalar, shuningdek, ma‘naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish, bo‘lajak mutaxassisni kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli olib borishga nisbatan fiziologik, psixologik va jismoniy tayyorgarlik jarayonidir”, deya izohlaydi [12, 26-b].

G.E.Karlibayeva mazkur muammo yuzasidan olib borgan ilmiy izlanishlari natijasida “pedagogik faoliyatga tayyorgarlik murakkab tuzilishga ega jarayon bo‘lib, uning negizini ijobiy munosabat, motivlar va egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar, o‘qituvchi kasbining qadriyatlarini tashkil etishini, shuningdek, ushbu tayyorgarlik tarkibiga shaxs xarakterining kasbga taalluqli jihatlari, pedagogik layoqat, kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalar majmuasi, ularni amaliyotda qo‘llashga imkon beradigan muayyan tajribalar” kirishini ilmiy-metodik jihatdan asoslaydi [11, 14-b].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Metodik tayyorgarlik kasbiy tayyorgarlikning asosiy yakuniy fazasi hisoblanadi. Aynan metodik bilimlarni egallash tarbiyachining kasbiy tayyorgarligini keltirib chiqaradi. Kasbiy tayyorgarlik murakkab va ko‘p qirrali jarayon hisoblanib, uning negizida muayyan kasb bo‘yicha muvaffaqiyatli ishlashni ta‘minlovchi imkoniyatlar, shaxsning yo‘nalganligi, kasbiy bilim, ko‘nikma, malaka va kasbiy sifatlar, mehnat tajribasi asosiy mezonlar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Tarbiyachining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish ijtimoiy-nazariy, pedagogik-psixologik, maxsus-metodik (kasbiy-metodik) va innovatsion tayyorgarlikni tashkil etadi. Metodik tayyorgarlikni takomillashtirish esa zamonaviy talablar, ijtimoiy va kasbiy ehtiyojlar asosida shaxsda maxsus nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalar, shuningdek, ma‘naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish, tarbiyachilarni kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli olib borishga nisbatan fiziologik, psixologik va metodik tayyorgarlik jarayonidir.

Mualliflarning fikrlariga tayangan holda, “metodik tayyorgarlik” tushunchasini quyidagicha ta‘riflash mumkin: metodik tayyorgarlik – tarbiyachilarning globallashuv sharoitida ma‘naviy dunyoqarashi, psixologik-pedagogik va tashkiliy-texnologik salohiyati, ya‘ni uning kasbiy imkoniyatlari salohiyatini tasvirlaydi. Metodik tayyorgarlik murakkab tuzilishga ega jarayon bo‘lib, uning negizini ijobiy munosabat, motivlar va egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar, tarbiyachi kasbining qadriyatlarini tashkil etadi. Ushbu tayyorgarlik tarkibiga shaxs xarakterining kasbga taalluqli jihatlari, pedagogik layoqat, kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalar majmuasi, ularni amaliyotda qo‘llashga imkon beradigan muayyan tajribalar kiradi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun yetarli bo‘lgan zamonaviy kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni jamiyat ehtiyojlari asosida belgilanishi tarbiyachilarning kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish jarayonining samaradorligini belgilovchi muhim mezon sanaladi. Tarbiyachilarning kasbiy-metodik tayyorgarligi uning o‘qitish texnologiyalari va har xil o‘qitish turlarini tashkillashtirishning o‘ziga xosligini bilish, tarbiyachining auditoriyaga kommunikativ ta‘sir qiluvchi vositalaridan maqsadga muvofiq foydalana bilish, jamoaviy fikr yuritishni tashkillashtira olish kabi metodik bilimlarga egaligi bilan belgilanadi. Bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy tayyorlash masalalari yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarda kasbiy bilimlar mazmuni quyidagi aspektlar bilan bog‘liq holda belgilanishiga e‘tibor qaratish maqsadga muvofiq sanaladi [12, 31-b]:

- nazariy – ta‘lim-tarbiya jarayonining maqsadi, tamoyillari, qonuniyatlari, ta‘limotlari, o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etishning shakl, metod va vositalari xususidagi bilimlar;
- metodik – o‘quv-tarbiya jarayonini loyihalashtirish, rejalashtirish va o‘qitishning shakl, metod va didaktik vositalarini to‘g‘ri tanlash, tarbiyalanuvchilarning bilish motivatsiyasini shakllantirish bilan bog‘liq bo‘lgan bilimlar;
- texnologik – aniq ta‘lim sharoitida pedagogik vazifalarni, vaziyatlarni yecha olish, rejalashtirilgan o‘quv-tarbiya jarayonini samarali amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan bilimlar;
- prognostik – ta‘lim oluvchi shaxsi rivojlanishini oldindan loyihalashtira olish, yuksak ma‘naviyatli, intellektual salohiyatli, mustaqil fikrli va ijodkor shaxsni tarbiyalashning ta‘sir vositalarini oldindan bashoratlash bilan bog‘liq bilimlar;

- ijodiy-innovatsion – pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish, o‘qitish va tarbiyalashning yangicha shakl, metod va vositalarini yaratish bilan bog‘liq amaliy bilimlar.

Karlibayeva G.E. ilmiy tadqiqot ishlarida bo‘lajak tarbiyachilarning metodik bilimlari guruhini quyidagilardan iborat deb hisoblaydi:

- ✓ o‘qitish texnologiyalarini bilish;
- ✓ har xil o‘qitish turlarini tashkillashtirishning o‘ziga xosligini bilish;
- ✓ pedagoglarning auditoriyaga kommunikativ ta’sir qiluvchi vositalaridan maqsadga muvofiq foydalana bilish;
- ✓ jamoaviy fikr yuritishni tashkillashtira olish va hokazo [11; 228-6].

Aynan metodik bilimlarni egallash tarbiyachining kasbiy tayyorgarligini keltirib chiqaradi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining metodik bilimlarining tarkibini ishlab chiqishda, biz nazariy va pedagogik bilimlar elementlarini birlashtiramiz hamda andragogik ta’limning o‘ziga xosligini inobatga olgan holda pedagogik, psixologik, metodik, dasturiy, tashkiliy va texnik komponentlarini qayd etamiz.

Shundan kelib chiqib, bugungi globallashuv sharoitida tarbiyachilar quyidagi metodik bilimlarga ega bo‘lishi kerak deb hisoblaymiz:

- pedagogika sohasidagi bilimlar: o‘quv jarayonining tabiati va xususiyatlari, maktabgacha ta’limning yangi tushunchalari haqida, modellar, o‘quv materiallari, ta’lim tizimlari, o‘qitish texnologiyalari, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini rivojlantirish va tarbiyalash, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarining pedagogik faoliyatining xususiyatlari haqida, standartning yangi talablari hisobga olingan holda o‘qitish texnologiyalarini bilish va qo‘llash, mutaxassislik bo‘yicha o‘quv materialini rejalashtirish, tanlash, sintez qilish va loyihalash, talabalarni bilim faoliyati uchun harakatlanlashtirish, tarbiyalanuvchilarning faoliyati va ularning ishlarini baholash, pedagogik hodisalarni mustaqil ravishda tahlil qilish, ilg‘or o‘qitish tajribasini tahlil qilish va amaliyotda qo‘llash, darslar va mashg‘ulotlar uchun didaktik materiallar ishlab chiqish, introspeksiyaning o‘tkazish;
- psixologiya sohasidagi bilimlar, xususan, yosh psixologiyasi: bolalarning o‘quv faoliyati uchun motivatsiyani tashxisi, kognitiv faoliyat sohasini aks ettirish, hissiy-ixtiyoriy va boshqalar kiradi, chunki ushbu bilimlar guruhini shakllantirish maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachisiga bolalarga to‘g‘ri yondashuvni topishga imkon beradi;
- maxsus bilimlarga meta-fan (shaxsiy, kommunikativ, tartibga solish, kognitiv) va fanni o‘rganish natijalari kiradi;
- metodik bilimlar tarkibiga ushbu fanlarga tegishli bo‘lgan o‘qitish metodlari sohasidagi bilimlar kiradi: “Kimga o‘rgatish kerak?”, “Nimani o‘qitish kerak?”, “Qanday qilib o‘qitish kerak?”, “Nega shunday va shunday emas?”, yangi usullar, uslublar, shakllar, o‘qitish vositalarini, shu jumladan, interfaol usullarni tanlash, meta-fan – shaxsiy, kommunikativ, tartibga solish, kognitiv, fanni o‘rganish natijalari. O‘quv jarayoni tuzilishining modelini amaliy va nazariy jihatdan tuza olishi (ta’lim jarayonini modellashtira olishi);
- texnologik bilimlar – aniq sharoitda ta’lim va tarbiya sohasidagi amaliy vazifalarni samarali hal eta olish.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Agar tarbiyachida shaxs sifatida yangiliklarni yaratishga ichki moslashuv va fikrlash usullari shakllangan bo'lsa, u barcha o'zgarishlarga o'z munosabatini oson bildiradi, ularni to'g'ri baholaydi, boshqaradi va o'z kasbiy sohasida ularni amalga oshiradi. Bu borada olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, yuqoridagi kabi vazifalarni amalga oshirish tarbiyachilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimida pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga tayyorlash bilan belgilanadi. Mazkur jarayonda tarbiyachining pedagogik imkoniyatlarini to'liq qamrab olgan, kasbiy salohiyatini namoyon eta oladigan, psixologik va individual imkoniyatlari hisobga olingan amaliy mashg'ulotlarni tashkil qilish va o'tkazish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Bunda tarbiyachilarning kasbiy rivojlanish jarayonida egallagan nazariy ma'lumotlari asosida ularning amaliy tayyorgarlikka ega bo'lishlariga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shunday qilib, bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida yuzaga keladigan kuchli raqobatga bardoshli bo'lish ehtiyoji har bir mutaxassisni o'zida kasbiy kompetentlik va unga xos sifatlarni tarkib toptirishga undaydi.

Yuqoridagi fikr va mulohazalardan ko'rinib turibdiki, hozirgi kunda maktabgacha ta'limi xodimlarining kasbiy ehtiyojlarini aniqlash va ularning malakasini oshirishga differensial yondashuv dolzarb muammo sifatida qaralmoqda. Bunday muammolarni hal etish esa o'z navbatida tarbiyachilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishning samarali tizimini yaratishni taqozo etadi. Xulosa shuki, pedagoglar auditoriyadan tashqari o'z bilimlarini mustaqil ravishda oshirib, fanga doir zarur bilimlarni egallagan bo'lishlari kerak. Mustaqil ta'lim orqali o'qitish jarayonining samaradorligini ta'minlovchi pedagogik malakalar, siyosiy, gumanitar bilimlarni anglatuvchi kasbiy tafakkurni shakllantirish, pedagogik bilimlar tizimini hamda mutaxassisligi bo'yicha o'qitish texnologiyalarini egallash muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Inncheon declaration/Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, May 19-22 2015, Incheon, Republic of Korea).
2. Robert J. Marzano., Michael D. Toth. Teacher Evaluation That Makes a Difference: A New Model for Teacher Growth and Student Achievement. Illustrated Edition.2013. [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://www.amazon.com/gp/product/B00E4NM6SI/ref=dbs_a_def_rwt_hsch_vapi_tkin_p1_i0.
3. Mareike Kunter. Motivation als Teil der professionellen Kompetenz: Forschungsbefunde zum Enthusiasmus von Lehrkräften. [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://www.researchgate.net/institution/Goethe-Universitaet_Frankfurt_am_Main.
4. Абрамян Г.В. Теоретические основы профессионального становления педагога в информационной среде: автореф. дисс. пед. наук. – Санкт-Петербург. 2001. – с. 39.
5. Арипджанова А.Р. Таълимни ахборотлаштириш шароитида олий таълим муассасалари педагогларининг креатив салоҳиятини ривожлантириш: пед. фанл. бўй. фанс. докт. дисс. – Т.: 2017. – 50 б.
6. Артикбоева З.А. Малака ошириш тизимида мактаб математика ўқитувчиларининг касбий-методик кўникмаларини такомиллаштириш: пед. фан. номзоди дисс. – Т.: 2004. – 163 б.

7. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. Москва, 1995. – с. 254.
8. Давыдов В.В. Проблемы развивающего обучения / Результаты экспериментальных исследований. – М.: Директ-Медиа Паблишинг, 2008. – с. 613.
9. Ибрагимов Х.И. Автогенная тренировка как средство самовоспитания. – М.: Педагогический вестник, 1996. – с. 115.
10. Ингенкамп Карлхайнц. Педагогическая диагностика / Карлхайнц Ингенкамп. – Москва.: Педагогика, 1991. – с. 240.
11. Карлыбаева Г.Е. Бўлажак физика ўқитувчиларининг методик тайёргарлигини такомиллаштириш: пед. фанл. докт. (DSc) дисс. – Т.: 2019. – 283 б.
12. Мирсолиева М.Т. Олий таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларининг касбий компетентлигини ривожлантириш механизмларини такомиллаштириш: пед. фан. докт. дисс. – Т.: 2008. – 235 б.
13. Равен Джон. Компетентность в современном обществе: выявление, развитие и реализация / пер.с англ. – М.: “Когито-Центр”, 2002. – с. 396.
14. Турғунов С.Т. ва бошқалар. Ўқитувчиларнинг касбий маҳорат ва компетентлигини ривожлантириш. –Т.: Сано-стандарт, 2012. –172 б.
15. Шадриков В.Д. Психология деятельности и способности человека: учебное пособие. –М.: Издательская корпорация "Логос", 1996. – с. 320.
16. Shodiyeva M.J. Akmeologik yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish // Monografiya. – Toshkent.: “Qamar-media” nashriyoti, 2022. – 272 bet.
17. Shodiyeva M.J. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini kasbiy ehtiyojlar asosida takomillashtirish imkoniyatlari // Xalq ta'limi. – Toshkent, 2021. – 5-son. – В.99-104. (13.00.00; №17).